

SURXONDARYO VILOYATI HAYVONOT DUNYOSINING DAVLAT
KADASTRI**Qahhorov Elbek Karimovich**

Qarshi Davlat texnika universiteti,
Irrigatsiya muhandisligi fakulteti,
yerdan foydalanish geodeziya va
geoinformatika kafedrası, “Kadastr”
yo’nalishi magistranti

Annotatsiya: Surxondaryo viloyati hayvonot dunyosining davlat kadastrı yovvoyi hayvonlar soni, ularning geografik tarqalishi, miqdoriy va sifat tavsıfları, ulardan foydalanish hamda ulari iqtisodiy baholash to’g’risidagi uzluksiz yangılanadigan axborot tizimi.

Kalit so’zlar: Hayvonot dunyosining davlat kadastr, qizil kitob, Davyergeodezkadastr, DKYAT, yovvoyi hayvonlar

Tabiiy erkin holda yashovchi yovvoyi hayvonlar: sut emizuvchilar, parrandalar, sudralib yurivchi hayvonlar, ham suvda, ham quruqlikda yashovchi hayvonlar, baliqlar, umrtqasizlar hayvonot dunyosining davlat kadastrı ob’ektları hisoblanadi. Davlat kadastrini yurituvchi organlar, ov qilish va baliq ovlash xo’jaligini yurituvchi, xayvonlarni tabiiy muhitdan ajratib olib hamda ajratib olmasdan ilmiy, madaniy-ma’rifiy, o’quv va tayyorlash maqsadlarida hayvonot dunyosidan foydalanuvchi yuridik shaxslar hayvonot dunyosi davlat kadastrining sub’ektları hisoblanadi.

Surxondaryo viloyati go’zal tabiat manzaralari, noyob hayvonot dunyosi, shifobaxsh zilol suv va yer osti boyliklari, tog’u-dashtlardagi musaffo havosi bilan ham mashhur bo’lib kelgan.

Ko‘hitang tog‘ tizmasining sharqiy yonbag‘ridagi «Surxon» davlat qo‘riqxonasida tog‘-o‘rmon ekotizimi, o‘ziga xos o‘simlik va hayvonot dunyosi turlarini, archazor o‘rmonlar muhofaza qilinadi.

O‘simlik va hayvonot dunyosiga juda serob tabiiy hududning umumiy yer maydoni 23 ming 802 gektar bo‘lib, shundan 12 ming 239 gektardan ziyodi yashil boylik bilan burkangan. Dengiz sathidan 850 metr dan 3 ming 137 metrgacha balandlikdagi hududda 900 dan ortiq turdagi o‘simlik uchraydi. Bu yerda «Qizil kitob»ga kiritilgan Qo‘qon zag‘ozasi, Litvinov lolaqizg‘aldog‘i, Maksimovich ravochi, Grek yong‘og‘i, achchiq hamda tikanakli bodom, soxta yantoq, dug‘bay singari ko‘plab o‘simlik va dov-daraxtlar o‘stirilmoqda. Turkiston laqqachasi balig‘i, Hind boygasi, cho‘lmiqqiysi qushi, mallabosh lochin, sud emizuvchilardan burama shoxli echki, Buxoro tog‘ qo‘yi, Turkiston silovsini singari kamayib borayotgan turli jonivorlar yashaydi.

Qo‘riqxonada O‘zbekiston «Qizil kitobi»ga kiritilgan 26 turdagi sudralib yuruvchilar, 18 turdagi noyob hayvonlar va 136 turdagi qushlar uchraydi. Jarqo‘rg‘on tumanidagi «Oqtepa» bog‘i ham o‘zining noyob o‘simlik va hayvonot dunyosi bilan kishini lol etadi.

«TSangardak» sharsharasi, Omonxona, Xo‘jaipok, Xo‘jamayxona singari shifobaxsh buloq suvlari, Boysun, Sariosiyo, Uzun kabi tumanlardagi o‘rmon xo‘jaliklari ham maftunkorligi bilan ko‘zlarga quvonch ulashadi.

O‘rni kelganda shuni aytish lozimki, bizning asrimizga kelib, jahondagi ko‘plab ekotizimlar zaxiralari deyarli butunlay tugab, ortga qaytarib bo‘lmaydigan salbiy jarayonlarga yuz tutmoqda. Bu jarayonga dunyoda aholining o‘sib borishi, iqtisodiy rivojlanish va boshqa omillar ham o‘z ta‘sirini o‘tkazayotgani sir emas. Vaholanki, atrof-muhit sog‘lomligi, iqtisodiyot samaradorligi va obod hayotimiz mavjud tabiiy resurslarni oqilona boshqarish hamda ulardan tejab foydalana olishimizga bevosita bog‘liq.

Keyingi yillarda mamlakatimizda atrof-muhit muhofazasiga qaratilayotgan yuksak e'tibor tabiat in'om etgan noyob tuhfalarni qadrlash, mavjud boy biologik xilma-xillikni asrab-avaylashni yangi bosqichda davom ettirishga qulay muhit, keng imkoniyat yaratdi. Yuzaga kelgan ekologik barqarorlikni ta'minlashning eng samarali yo'llarini belgilab berdi. Shunga muvofiq mamlakatimizning janubdagi vohasida ham joriy yildan mevali va manzarali daraxtlarni hisobga olish tizimi joriy etilgani bunga yaqqol dalildir. Bunda ro'yxatga olingan dov-daraxtlarga maxsus kodli raqam ilinib, elektron bazaga kiritilayotgani ahamiyatli bo'lmoqda.

To'g'ri, viloyatda ko'chat ekib, yangi bog'lar yaratish azaldan ajoyib an'ana bo'lib kelgan. Jumladan, birgina shu yilning o'zida 10 millionga yaqin manzarali va mevali daraxt ko'chati o'tqazilib, sakkiz milliondan ortiq qalamcha qadaldi. Lekin, hozirgacha ularning hisob-kitobi yuritilib, hech kim nazorat qilmagan. Vohada qancha mevali, qancha manzarali daraxt borligini yoki yangi ekilgan ko'chatlardan qanchasi unmay qurib qolganini ham hech kim bilmas edi. Yashil boyliklarga yangicha yondashuv har bir daraxtning hisobini yuritish imkoniyatini yaratdi. Shu asosda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi nazorat bo'yicha tuman, shahar inspeksiyalari xodimlari joylardagi mavjud daraxtlarni xatlovga olib, ularning aniq reestrini tuzmoqda. Daraxtlarning nomi, soni va ularga biriktirilgan mas'ul shaxslar haqidagi ma'lumotlarni o'rnatayotir. Endilikda elektron bazaga kiritilgan har bir daraxtning o'suvchan va o'nuvchanligi monitoring qilib boriladi. Bu tartib odamlarda mavjud daraxtlar davlat nazoratida ekanini his etib, beruxsat kesilishi, qurib qolishi va boshqa holatlarning oldini oladi. Yashil dunyo parvarishi va aholi o'rtasida ekologik madaniyatni yuksaltirishga mas'uliyatni yanada oshiradi.

Sodda qilib aytganda, har bir novdaning, daraxtning so'rovi bo'ladi. Biroq, ekologik barqarorlikni ta'minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish yuzasidan keng qamrovli ishlar amalga oshirilayotgan, bu sohada targ'ibot va qat'iy nazorat tadbirlari olib borilayotgan bo'lsada, joylarda hamon tabiatga beparvolik bilan munosabatda bo'lish hollari to'liq barham topgani yo'q. Masalan, yilning o'tgan davrida o'tkazilgan

reyd tadbirlarida 144 shaxsning o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish sohasidagi qonun talablarini buzgani aniqlanib, 158 million 664 ming 500 so'm ma'muriy jarima qo'llanildi.

Atmosfera havosini muhofaza qilish sohasi bo'yicha davlat inspektorlari tomonidan o'tkazilgan nazorat tadbirlarida 344 ta huquqbuzarlik holati aniqlanib, qonunbuzarlarga nisbatan 38 million 467 ming 632 so'm ma'muriy jarima belgilandi. Yer resurslari bo'yicha 213 nafar shaxs, yer osti boyliklari bo'yicha 36 kishi ma'muriy javobgarlikka tortildi. Chiqindilarning belgilanmagan joylarga tashlanishining oldini olish, suv va suvlarni ifloslantirish kabi yo'nalishlar bo'yicha ham tezkor tadbirlar tashkil etilib, qonunbuzarlarga nisbatan tegishli choralar ko'rilmogda.

Surxondaryo Viloyati Hayvonot Dunyosi: 3 Yillik Statistik Ma'lumot (2022–2024)

Ushbu hujjatda Surxondaryo viloyatining hayvonot dunyosiga oid 2022-2024 yillar oralig'idagi asosiy statistik ma'lumotlar jamlangan. Ma'lumotlar ochiq manbalar, xususan Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi hamda Termiz hayvonot bog'i axborotlariga asoslangan.

Ko'rsatkich	2022- yil	2023- yil	2024- yil
Termiz hayvonot bog'idagi hayvonlar soni (bosh)	465	478	487
Hayvonlar turlari soni	95	98	101
Qizil kitobga kiritilgan hayvonlar soni (tur)	37	40	42

Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi oʻsishi (%)	101.2%	102.5%	103.7%
Hayvonot bogʻiga tashrif buyurganlar soni (ming kishi)	35	41	47

Qoʻshimcha Maʼlumotlar

- Termiz hayvonot bogʻi 1938-yilda tashkil etilgan boʻlib, hozirda 487 bosh hayvon va qush saqlanmoqda.
- Oʻzbekiston “Qizil kitobi”ga kiritilgan 42 turdagi hayvonlar mavjud.
- Viloyatda qishloq xoʻjaligi bilan bogʻliq hayvon yetishtirish sohasi barqaror oʻsmoqda.

Xullas, joriy yilning oʻtgan besh oyida viloyatda 1 ming 518 huquqbuzarga nisbatan ish qoʻzgʻatilib, Oʻzbekiston Respublikasi Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi Kodeksiga asosan 490 million 525 ming 808 soʻm jarima chorasi qoʻllanildi. Maʼmuriy javobgarlikka tortilganlarning 20 nafari mansabdor shaxslar. Tabiatga yetkazilgan zarar 437 million 661 ming 220 soʻmni tashkil etdi.

Tabiatni muhofaza qilish qonunchiligini buzayotgan bunday shaxslar aniqlanib, ulardan yetkazilayotgan zarar undirib olinayotir. Afsuski, bu holatlar hali oramizda tabiat boyliklariga toʻgʻri birlashtirib munosabatda boʻlmayotganlar borligini koʻrsatayotir. Bu vohada keng jamoatchilikni, ona tabiatni avaylab-asrashni, atrof-muhit muhofazasiga eʼtiborni yanada kuchaytirishni taqozo etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

ROʻYXATI

Yu. Kaufman, D. Studler. Kadastr 2014 Видение будущей кадастровой системы. Toshkent 1999.

Краткая историческая справка «О кадастре».

Выдержки из книги «Уложение Темура» Перевод с персидского Хамидуллы Караматова.

Surxondaryo viloyat ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi boshlig'ining 2024-yil yakuniy hisoboti

Raxmonov Qosimdjon Raxmonovich, Uspankulov Bekjan Musabekovich Davlat kadastrlari asoslari o'quv qo'llanma Toshkent 2018

O'zbekiston Respublikasi Kodekslari:

O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi (O'zR 30.04.1998 y. 598-I-son qonuni bilan tasdiqlangan, O'zR 30.04.1998 y. 599-I-son qarori bilan amalga kiritilgan).

O'zbekiston Respublikasi Qonunlari:

O'zbekiston Respublikasining —Davlat kadastrlari to'g'risidagi qonuni (15.12.2000 yil № 171-II).

O'zbekiston Respublikasining —Davlat yer kadastrlari to'g'risidagi qonuni (28.08.1998 y. № 666-I).

O'zbekiston Respublikasining "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi qonuni.

O'zbekiston Respublikasining —Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonuni (03.12.2004 yil № 710-II).

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 10.03.1998 y. —O'zbekiston Respublikasining muhofaza etiladigan tabiiy hududlari davlat kadastrini yuritish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi № 104-sonli qarori.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05.09.2000 y.

—O'zbekiston Respublikasi o'simlik dunyosi ob'ektlarning davlat kadastrini yuritish tartibi to'g'risidagi nizomni va O'zbekiston Respublikasi hayvonot dunyosining davlat kadastrini yuritish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi № 343-sonli qarori.